

**Dilsora BOLTAYEVA,**  
*Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi*  
*E-mail: daikonbnm@gmail.com*  
*Tel: (88) 855-1996*

*Buxoro Pedagogika instituti (PhD) S.Hamroyev taqrizi asosida*

## THEORETICAL-METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE FORMATION OF RADICALISM IN MEDIA SPACE

### Annotation

This article provides information about radicalism in the Media space, discord on the internet. Also the reasons for the use of the media space of radical flows and their audience are revealed.

**Key words:** Internet, social network, Gabriel Weimann, audience, media space, Information, Communication

## ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ РАДИКАЛИЗМА В МЕДИАПРОСТРАНСТВЕ

### Аннотация

В данной статье представлена информация о радикализме в медиапространстве, конфликтах в интернете. Также раскрыты причины использования медиапространства радикальными течениями и их аудитория.

**Ключевые слова:** Интернет, социальная сеть, Габриэль Вейманн, аудитория, медиапространство, информация, общение.

## MEDIA MAKONDA RADIKALIZM SHAKLLANISHINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

### Annotatsiya

Mazkur maqolada Media makondagi radikalizm, internetdagi ixtiloflar haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek radikal oqimlarning media makon foydalanan sabablari va ularning auditoriyasi olib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Internet, ijtimoiy tarmoq, Gabriel Veymann, auditoriya, media makon, axborot, muloqot

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev shunday ta'kidlaydi: yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlarini juda-juda istardim. Mana, ulug' ajdodimiz shunday deb yozganlar: "Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib, xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq". Bugungi kunda yon-atrofimizda diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, "ommaviy madaniyat" degan turli balo-qazolarning xavfi tobora kuchayib borayotganini hisobga oladigan bo'lsak, bu so'zlarining chuqur ma'nosi va ahamiyati ma'lum bo'ldi. Haqiqatan ham hozirgi vaqtida yoshlar tarbiyasi biz uchun o'z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan masala bo'lib qolmoqda.

Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlар ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G'arazli kuchlar sodda, g'o'r yoshlarni o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga umriga zomin bo'lmoqda [1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Hozirgi vaqtida turli xil terrorchi guruhlar va terrorchi guruhlarning har bir a'zosi YouTube, Facebook, Twitter, Telegram kabi ijtimoiy tarmoqlardan foydalananadi. Terrorchi guruhlar quyidagi maqsadlarda ijtimoiy tarmoqlardan foydalananadi:

- ijtimoiy tarmoqlar orqali o'zlarining maqsadlarini yanada kengaytirish;
- ijtimoiy tarmoqlar orqali yangi a'zolarni jalb qilish;
- ijtimoiy tarmoqlar orqali o'qimishli va ziyoli insonlarni toplash;
- ijtimoiy tarmoqlar orqali xabarlarni tezroq dunyo ommasiga yetkazish.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Dunyoda terrorizmga qarshi kurashadigan hukumatlar va agentliklar sa'y-harakatlarini natijasida terrorchi tashkilotlarning ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyatini to'xtatishga harakat qilinyapti. Terrorchi guruhlarning ijtimoiy tarmoqlardan keng ko'lama foydalaniishi quyidagi elementlarga bog'liq:

- birinchidan ijtimoiy tarmoqlar arzon bo'lgani sababli;
- ikkinchidan ijtimoiy tarmoqlardan ko'p insonlarning kirish imkoniyatlari qulay bo'lganligi sababli. Bu guruhlar o'zlarining g'oyalarini to'g'ri qilib ko'rsatish orqali tinglovchilarni jalb qilib, insonlarga ta'sir ko'rsatishga harakat qiladilar. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra: "Insonlar agar bu guruhlarning ijtimoiy tarmoqdagi sahfalariga ozgina vaqtini sarflasa, ikkiyuzlamachi va zulmkorlik g'oyalar aks etgan fikrlarni haqiqiy insondon eshitganday inson o'zini his qiladi". Terrorchi guruhlaridan biri bo'lgan Al-Qaida ijtimoiy tarmoqlardan ko'p va keng ko'lama foydalananadi. Terrorchi guruhlarning deyarli barchasi ijtimoiy tarmoqlarda mayjud. Al-Qaida tashkiloti birinchi bo'lib internetdan foydalangan. Terrorchi guruhlarning boshliqlari internetga doimiy ravishda video va audio xabarlarni joylashtirib kelyapti. ISHID jangarilari insonni boshidan judo qilingan videolarni internetdagi sahfalariga joylab, shu tariqa oddiy insonlarni internetdan qo'rkitishga asoslangan usulni o'ylab topgan [1].

**Tahlil va natijalar.** Islom tarixi va madaniyati G'arbdagi mahalliy terrorchilar ham o'zlarining g'oyalarini tarqatish uchun ijtimoiy media va texnologiyalardan foydalananadilar. Terroristik tashkilotlar o'z maqsadlariga erishish va o'z xabarlarini tarqatish uchun demokratik mammakatlarning ochiq ommaviy axborot vositalariga tayanadilar. Media tashkiloti terrorchiligidagi tashkilotlari maqsadlarini qo'llab-quvvatlamasligi mumkin, ammo ular hozirgi voqealar va muammolar haqida xabar beradi. Raqobatli ommaviy axborot vositalari muhitida, terror xuruji sodir bo'lganida, ommaviy axborot vositalari ushbu voqeani yoritib berishga shoshilishadi. Bunda ommaviy axborot vositalari terrorchilik tashkilotlari haqidagi xabarlarni tarqatishda yordam beradi. Terror guruhlari va ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi munosabatlarning yorqin misollaridan biri Usoma ben Ladenning audio va video yozuvlarini tarqatishi edi. Ushbu lentalar to'g'ridan-to'g'ri arab telekompaniyalariga, jumladan Al-Jazira kanallariga yuborildi[3]. Xayfa universitetidan Gabriel Veymann tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda Veymannning aytilishicha, Internetda uyushgan terrorchilik harakatlarining qariyb 90 foizi ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshiriladi.

Veymanning so‘zlariga ko‘ra, terror guruhlari o‘z xabarlarini tarqatish, a’zolarni yollash va razvedka to‘plash uchun Twitter, Facebook, YouTube va Internet forumlar kabi ijtimoiy media platformalaridan foydalanadilar. Terror guruhlari ijtimoiy mediaga murojaat qilmoqdalar, chunki ijtimoiy media vositalari arzon va qulaydir, xabarlarni tez, keng tarqatishini osonlashtiradi va asosiy ommaviy axborot vositalarining filtrisiz yoki tanlab olinmasdan tinglovchilar bilan bermalol muloqot qilishga imkon beradi. Shuningdek, ijtimoiy media platformalari terror guruhlariga o‘z tarmoqlari bilan aloqada bo‘lishga imkon beradi. Oldin terror guruhlari vositachilar orqali xabarlarini tarqatishgan bo‘lsa, ijtimoiy media platformalari terror guruhlariga to‘g’ridan to‘g’ri mo‘ljallangan auditoriyaga xabarlarni yuborishga va real vaqtida o‘z auditoriyasi bilan suhbatalishishga imkon beradi [4]. Al-Qoida ijtimoiy tarmoqlardan eng ko‘p foydalanadigan terror guruhlaridan biri sifatida qayd etilgan. Rand korporatsiyasining katta maslahatchisi Brayan Jenkins Al-Qoidaning Internetdan birinchi foydalanishi haqida shunday deydi: “Deyarli barcha terrorchilik tashkilotlarda veb-saytlar mavjud bo‘lsa-da, Al-Qoida birinchi bo‘lib Internetdan to‘liq foydalanadi. Bu Al-Qoidaning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. U o‘zini global harakat deb biladi. Uning rahbarlari kommunikatsiyalarni kurashning 90 foizi deb bilishadi”. “Texnologiya asrida jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurash” kitobining muallifi Rob Ueynvurtning so‘zlariga ko‘ra, ISHID o‘z xabarini tarqatish uchun ular yuzdan ortiq saytlardan foydalangan. Bu terrorchi guruhlar tomonidan ijtimoiy ommaviy axborot vositalaridan qanchalik keng foydalaniyatganligini ko‘rsatadi. Edgar Jones o‘zining “Efir orqali terrorizmni qabul qilish: yollash va radikalizatsiya” nomli maqolasida Ishid yangi a’zolarni yollash va ularning xabarlarini ommaga yetkazish uchun hujjatli filmlardan va hatto o‘zlarining Dabiq jurnalidan foydalandi.

Axborot asri deb atalayotgan hozirgi zamonda ma’lumot olish va axborot almashishning qulay vositasi internetdir. Biroq bu tarmoqda hamma narsa aralash-quralash oq bilan qora, ezzulik bilan yovuzlik. Ma’lumot tarqatish, biznes va reklama uchun katta maydonga aylangan global tarmoqni nazorat qilishning imkonи yo‘q. Shuning uchun ham “o‘rgimchak to‘ri”da buzg‘unchi g‘oyalar targ‘iboti va terrorga chaqiriqlar juda ko‘p uchraydi. Buzg‘unchi firqalar tomonidan amalga oshiralayotgan xunrezliklar ommaviy axborot vositalari, ayniqsa, internet orqali ko‘p namoyish etilmoqda. Jangarilar o‘zlarining qabih maqsadi yo‘lida internetdan ustalik bilan foydalanoqda [5]. Mobil messengerlar orqali video, rasm, audio, klip, matnli xabar almashish imkoniyati mavjud. Ijtimoiy media platformalarida Satanistlar, Aum Senrikyo sektasi, Soxta Salafiyalar, Al-Muhojiron, Al-Qoida, ISHID kabi radikal g‘oya tarafdarlarining keskin ruhdagi, insonni junbushga keltiradigan fikr hamda nutqlari mavjud. Aum Senrikyo sektasi yangi a’zolarni jalb qilish, asosiy a’zolarga ezoterik ta‘limotlarni berish uchun internetdan fodalangan. Satanizm messengerlarning har xil turida mavjud. Bu harakat insonni qurbanlikka keltirish, giyohvandlik, hokimiyatga nisbatan isyonkorlik, dinlarning mavjudligini tan olmaslik kabi radikal g‘oyalarni messengerlar orqali targ‘ib qilib kelmoqda. Soxta Salafiyalar jihod, hijrat, dorul-kufr g‘oyalarni, ISHID jihod va virtual xalifalik, Al-Muhojiron jihod, xalifalik kabi radikal g‘oyalarni keng targ‘ib qilib jamiyat orasida fitnani avj oldirgan. Bunday g‘oyalarga qarshi kurashishda turli bosqichlar tizimi ishlab chiqilgan.

Rivojlanayotgan aloqa texnologiyalari va mobil messengerlarda ekstremistlarning radikallashuvi tobora muhim rol o‘ynamoqda. Diskurs so‘zi nutq, lingistik faoliyat jarayoni, gapirish uslubini anglatadi [6]. Online ekstremizmning diskurs turlariga quyidagi asosiy turlar ko‘rsatilgan. Propaganda, ya’ni targ‘ibot videolar. Bunday videolar islom niqobi ostidagi ekstremistlarning asosiy qismi va o‘ng-ekstremistik targ‘ibotchilar tomonidan tarqatiladi. Ular ayniqsa yoshlarga murojaat qiladi. Ekstremistik guruhlar propaganda targ‘ibotlarini (Instagram hikoyalari orqali), shuningdek videolarni Telegram va YouTube orqali tarqatadi. “Soxta yangiliklar” atamasi ataylab internetga siyosiy dezinformatsiya va soxta hisobotlarni maqsadli ravishda tarqatish. Soxta yangiliklar interneta juda tez tarqaladi. Ko‘p sonli odamlarga tez yetib boradi. Bu siyosiy fikr orqali maqsadli manipulyatsiya o‘tkazish uchun ishlataladi. Soxta yangiliklar “ijtimoiy botlar” va “soxta ijtimoiy tarmoq profillaridan” tarqatiladi. “Hate Speech”lar kommunikativ hujumlarni anglatadi. Ba’zi ijtimoiy guruh a’zolari tomonidan irqchi, islomofobik, antisemitizm, nafratlanadigan, insonni junbushga keltiradigan xabarlar tarqatilishini anglatadi [7]. Veb-saytlar orqali terrorchilar uch xil auditoriyani qamrab oladi.

1) Joriy va potensial tarafdarlari. Terroristlarning veb-saytlari sotuvga qo‘yiladigan narsalarni jumladan, futbolkalar, nishonlar, bayroqlar, videofilmlar va audiokassetalarini taklif etadi. Bu sotiladigan buyumlarda ularning g‘oya va maqsadlari aks etgan bo‘ladi. Ko‘pincha, tashkilot o‘z maqsadiga erishish uchun mahalliy tarafdarlari saytida mahalliy tilda faoliyat yuritadi. Bu saytlarda tashkilotning faoliyati, uning ittifоqchilari, raqobatchilari va uning ichki siyosati haqida batafsil ma’lumot berishadi.

2) Xalqaro jamoatchilik fikri. Bunda mahalliy tildan boshqa tillarda faoliyat yuritishadi. Ko‘pgina saytlar bir nechta versiyalarni taklif qiladi. Masalan, ETA sayti kastiliya, nemis, fransuz, italyan va boshqa tillarda ma’lumotlarni taqdim etadi. MRTA sayti ingliz va ispan tillaridan tashqari yapon va italyan tillarini ham taklif qiladi. IMU sayti arab, ingliz va rus tillaridan foydalananadi. Xalqaro auditoriyalar uchun saytlar va tashkilot haqida asosiy ma’lumotlarni taqdim etadi. Ko‘pgina saytlarning mazmungiga qaraganda, chet ellik jurnalistlarni jalb qilishga qaratilgan mavzularni o‘z ichiga oladi.

3) Qarshi turuvchi jamoatchiligi. Terrorchilarga qarshi bo‘lgan davlatlarga qaratilgan saytlar hisoblanadi. Saytlar muxolifotning xatti-harakatlari va sabablari to‘g’risida aybdorlik tuyg‘usini uyg‘otish orqali dushmanmani ruhini tushirish uchun harakat qilayotganga o‘xshaydi. Bu jarayonda ular, shuningdek, dushmanlarining davlatlarida jamoatchilik muhokamasini rag‘batlantirishga intiladi. Ular jamoatchilik fikrini o‘zgartirish va boshqaruv rejimini jamoatchilik tomonidan qo‘llab-quvvatlashni susaytirishni xohlaydi [8]. Internet ko‘p jihatdan terrorchi tashkilotlar faoliyati uchun ideal maydon hisoblanadi. Uning qulayliklarini quyidagi ko‘rish mumkin:

- qulay foydalanish;
- senzura yoki boshqa turdagи davlat nazorati shakllari kam yoki umuman yo‘q;
- butun dunyoga tarqalishi mumkin bo‘lgan katta auditoriya;
- muloqotning anonimligi;
- tezkor axborot oqimi;
- arzon veb-saytni ishlab chiqish va saqlash;
- multimedia muhiti (matn, grafik, audio va videolarni birlashtirish qobiliyati va foydalanuvchilarga filmlar, qo‘shiqlar, kitoblar, plakatlar va boshqalarini yuklab olishlariga ruxsat berish) [9].

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, internetdan ma’lumot olish oson va qulayligi bilan ajralib turadi. Shuningdek O‘zbekiston respublikasining “Axborot olish kafolatlari va erkinligi” to‘grisidagi qonuni, “Axborotlashtirish to‘g’risida” gi qonuni, Jinoyat va Ma’muriy javobgarlik to‘g’risidagi kodekslarida axborot erkinligini ta‘minlash, qonunga xilof ravishda ijtimoiy ongga axborot vositasida ruhiy bosim o‘tkazishga, davlat siri bo‘lgan ma’lumotlarni oshkor etish, qonunga xilof ravishda millatlararo va dinlararo totuvlikni buzishga qaratilgan, urush va zo‘ravonlik hamda terrorizmni, milliy, irqi, diniy adovatni uyg‘otishni niyat qilgan, separatizm va aqidaparastlik g‘oyalari bilan yo‘g’rilgan g‘oyalarni tarqatish qonun bo‘yicha ma’lum

javobgarlikka tortish belgilanganligi ta'kidlangan. Konstitutsiya va qonunlar har bir fuqaro uchun mo'tabar va muqaddas deb hisoblanishi kerak. Qonun faqatgina siyosatning ifodasi bo'imasdan insonni tarbiyalaydigan beqiyos ma'naviy kuchlardan biri bo'lib hisoblanadi. Qonunga og'ishmay itoat qilgan jamiyatda demokratiya mustahkam va barqaror bo'ladi.

#### **ADABIYOTLAR**

1. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va Inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 24.
2. "Fighting Crime and Terrorism in the Age of Technology".The Brown Journal of World Affairs. 2018-07-30.
3. Khan, I. (2013). A Human Rights Agenda for Global Security. In CAHILL K. (Ed), History and Hope:The International Humanitarian Reader (pp.112-122). Fordham University Press.
4. "Terrorist groups recruiting through social media".CBC News. Retrieved April 5, 2012.
5. Muhammad A.Y. Internetdagi tahdidlardan himoya. – Toshkent: "Movarounnahr", 2016. – B. 290.
6. <https://uz.info-4all.ru.Diskursiya nima?.08/15/2017>.
7. By Julian Ernst. Online extremism. – Germany: German Federal Criminal Police Office (Bundes-kriminalamt): Terrorism/Extremism Research Unit, 2018. – P.13.
8. Weimann G. How Modern Terrorism Uses the Internet. – Washington: United States Institute of Peace, 2014. – P.5
9. Weimann G. How Modern Terrorism Uses the Internet. – Washington: United States Institute of Peace, 2004. – P.7.